



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "TAQDIR" KONSEPTNING KONSEPTUAL TAHLILI

Mamatqulova Mohigul Soyibjon qizi
Qo'qon Davlat Universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya.

Olam lisoniy manzarasini o'rganishda faol bo'lgan konseptlar mohiyati va ularning tilda voqelanishini tavsiflash, tafakkurda uning shakllanish hamda verballashuviga asos bo'ladigan lisoniy va nolisoniy omillarni aniqlash dolzarb hisoblanmoqda. O'zbek tilshunosligida ham olam lisoniy va konseptual manzarasida universal va unikal konseptlarning ilmiy-amaliy tadqiqi izchil o'rganilmoqda. Biroq "taqdir" tushunchasining ingliz va o'zbek til birliklari misolida konseptuallashuvi, uning lingvokognitiv va lingvomadaniy aspektlarini qiyosiy-chog'ishtirish orqali yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud emas. Birinchidan, lingvokognitiv yondashuv obraz, tushuncha va qimmatlik (qadriyat) komponentlaridan tashkil topgan konseptni madaniyatning bazaviy birligi sifatida belgilaydi. Ikkinchidan, lingvomadaniy yondashuv tilning akkumiliativ, ya'ni xalqning tajribasi va dunyoqarashini o'zida jo qiluvchi va avloddan avlodga uzatuvchi funksiyasi haqidagi g'oyaga tayanadi. Tadqiqot shunu ko'rsatdiki, xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati qanchalik boy bo'lsa, xalqning konseptosferasi ham shunchalik boy bo'ladi. Olingan natijalar xorijiy til va madaniyat haqidagi potensial bilimlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy manzarasi, taqdir, konsept, til birliklari, lingvomadaniy yondashuv, konseptosfera, assotsiativ yondashuv.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА "СУДЬБА" В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Маматкулова Мохигул Соибжон кизи

независимый исследователь Кокандского государственного университета

Аннотация.

Описание сущности концептов, активных в изучении языковой картины мира, и их реализации в языке, выявление языковых и неязыковых факторов, лежащих в основе его формирования и вербализации в мышлении, считается актуальным. В узбекском языкознании последовательно изучаются научно-практические исследования универсальных и уникальных концептов в языковой и концептуальной картине мира. Однако нет исследований, посвященных концептуализации понятия "судьба" на примере английских и узбекских языковых единиц, освещению его лингвокогнитивных и лингвокультурных аспектов посредством сравнительного анализа. Во-первых, лингвокогнитивный подход определяет концепт, состоящий из компонентов образа, понятия и ценности, как базовую единицу культуры. Во-вторых, лингвокультурологический подход опирается на идею аккумулятивной функции языка, то есть функции, заключающей в себе опыт и мировоззрение народа и передающей его из поколения в поколение. Исследование показало, что чем богаче материальная и духовная культура народа, тем богаче концептосфера народа. Полученные результаты послужат дальнейшему обогащению потенциальных знаний о иностранном языке и культуре.

Ключевые слова: языковая картина мира, судьба, концепт, языковые единицы, лингвокультурный подход, концептосфера, ассоциативный подход.

CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE CONCEPT “DESTINY” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.

Mamatqulova Mohigul Soyibjon qizi
Independent Researcher, Kokand State University

Annotation.

Describing the essence of concepts active in the study of the linguistic picture of the world and their realization in language, identifying linguistic and non-linguistic factors that are the basis for its formation and verbalization in thinking is considered relevant. In Uzbek linguistics, the scientific and practical study of universal and unique concepts in the linguistic and conceptual landscape of the world is also consistently studied. However, there are no studies devoted to the conceptualization of the concept of “destiny” on the example of English and Uzbek language units, illuminating its linguocognitive and linguocultural aspects through comparative analysis. Firstly, the linguocognitive approach defines the concept, consisting of the components of image, concept, and value (value), as the basic unit of culture. Secondly, the linguocultural approach is based on the idea of the accumulative function of language, that is, the function of embodying the experience and worldview of the people and transmitting it from generation to generation. The research has demonstrated that the richer a people's material and spiritual culture, the more abundant their conceptsphere becomes. The findings obtained contribute to further enriching potential knowledge about foreign languages and cultures.

Key words: linguistic worldview, fate, concept, linguistic units, linguocultural approach, conceptsphere, associative approach.

Bir necha yuz yillar avval ilmiy e'tibor qaratilgan til va madaniyatning murakkab ko'p qirrali o'zaro munosabati mavzusi hozirgi zamon lingvistlarining ilmiy ishlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Jahon tilshunosligida universal konseptlarning milliy-madaniy o'ziga xosligi masalasini frazeologik birliklarnisolidagi yoritib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, zamonaviy antropologik lingvistikada frazeologik birliklar olamning milliy lisoniy manzarasi shakllanishi va rivojlanishida katta o'rin tutishi hamda uning muayyan lingvomadaniy jamoaga xos xususiyatlarini o'zida yorqin ifodalashi alohida qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda frazeologizmlar til egasining lingvokognitiv salohiyatini oshirishda, inson tarafidan tilda aks etgan olamning idrok etilishida, borliq fragmentlarining til vositalari orqali tafakkurda mustahkamlashuvi antropotsentrik jihatdan g'oyat muhim o'rin tutishini ochib berish nuqtai nazaridan muhimdir. Ma'lumki, tilning eng ko'p madaniy ma'lumotlar tashuvchisi frazeologik birliklar hisoblanadi, chunki ular xalqning madaniyati, tasavvuri, odatlari, qadimiy an'analari, obrazli tafakkuri va o'ziga xos xulq-atvori bilan bog'langan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yu.Stepanov fikricha, «konsept – bu inson ongidagi madaniyatning qaymog'i; madaniyat inson mental olamiga shu shaklda kiradi. Boshqa tomondan konsept orqali “madaniy qimmatliklar yaratuvchisi” bo'lmagan oddiy insonning o'zi madaniyatga kiradi, ba'zi hollarda unga ta'sir o'tkazadi. «...» konsept inson mental olamidagi madaniyatning asosiy yachaykas[8,45]. «Kognitiv konseptlar – bu individual mazmunli mental tuzilmalar bo'lib, atrofdagi voqelikni tartibga soladi va qayta tizimlaydi, madaniy konseptlar esa – bu jamoaviy mazmundagi mental tuzilmalar bo'lib, ular o'zlari tegishli bo'lgan madaniyatning xususiyatlarini ko'rsatadi» [4,25] Demak, konsept – oddiy insonlarga eng umumiy shakl va mazmunda namoyon bo'luvchi murakkab tartibli tuzilishga ega mental shakl. Unda tasavvur, bilim, assosatsiya, his-kechinmalar ham mujassamlashgan bo'ladi. «Til va madaniyatning o'zaro ta'siri ongda sodir bo'ladi, shuning

uchun har qanday lingvomadaniy tadqiqoq bir vaqtning o'zida kognitiv tadqiqotdir. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan insondan madaniyatga, lingvokulturalogiya nuqtai nazaridan madaniyatdan insonga tomon harakatlanamiz» [4, 48]. Ushbu harakatning asosini til tashkil etadi, albatta.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Taqdir tushunchasining favqulotda muhim ahamiyati uni inson ruhiy olamining markazi, hislar, kayfiyatlar, fikrlar, xoxish, diniy e'tiqod manbai etadi. Bu pretsedent matnlar va folklorda ham o'z ifodasini topgan. Quro'oni Karimda taqdir xususida bir qancha oyatlar mavjud: «Ayting: bizga faqat Olloh biz uchun yozib qo'ygan narsagina yetur» («Tavba» Surasi, 51-oyat), «har bir jon faqat Ollohning izni bilan aniq belgilab – yozib qo'yilgan muddatda o'ladi» («Oli Imron» surasi, 145 oyat), «hech bir jon mo'min bo'la olmas, magar Ollohning izni-irodasi bilangina» («Yunus» surasi, 100-oyat). Nasroniylik va islom dinida fatalizm g'oyasi ustivorlik kasb etib, ispan, turk va o'zbek etnosi vakillari tafakkurida ham ma'lum darajada ta'sir kuchiga ega. Taqdir konseptining barcha mifologik, diniy, falsafiy va etik tizimlarda mavjudligi uni lingvistikada tadqiq qilishda integrativ metodlarga tayanishni taqozo qiladi. Diffuzlik xususiyatiga ega taqdir konseptining kontseptual tahlili insonlar dunyosining yirik faylasuf olimlar L.Vitgenshteyn, G.X.fon Vrig, M.Xaydeger, X-G. Gadamer, M.Bumer, A.Vejbidskaya va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Taqdir arabcha so'z bo'lib «ehtimol», «nazarda tutish» ma'nosini, o'zbek tilida esa «oldindan belgilab qo'yilgan ko'rgulik», «yozmish» ma'nosini anglatadi [10, 438]. Diniy tushuncha sifatida oldindan belgilab qo'yilgan, peshonaga bitilgan ko'rgulik; yozmish, qismat hamda kelgusi hayot, natija, uning nima bo'lishi deb tavsiflanadi [9, 35-36]. Taqdir so'zining sinonimlari qismat, yozmish, peshana, nasiba, ko'rgulik leksemalaridan iborat. O'zbek tilida taqdir tushunchasi ot so'z turkumiga mansub morfologik tuzilishiga ko'ra, yoz(moq) fe'l o'zagiga mish turkiy qo'shimchani qo'shish orqali yasalgan yozmish leksemasi bilan uzviy aloqadorlik kasb etadi. Diskursda taqdir bo'lib, taqdir qilmoq (etmoq) turg'un birikmalari ijobiy baho bo'yoqlariga ega. Ko'rgulik, yozmish kabi leksemalarda salbiy baho ottenkalari seziladi. Taqdir komponentli bir qancha turg'un birikmalarning fe'l uzvi o'zbek lingvomadaniy jamoasidagi mental shaklni aniqroq tavsiflab, yaxlit obraz sifatida tasvirlaydi, masalan taqdir uchrashtiradi; taqdir sindiradi; taqdir qo'lida o'yinchoq qiladi; taqdir buyuradi; taqdir yo'llaydi; taqdir hukm qiladi; taqdir kuladi; taqdir qo'shadi; taqdir ayro qiladi; taqdir bitadi va hak. Ushbu birikmalarda taqdir qudratli jonli mavjudot obrazida gavdalanadi. Ushbu fikr tasdig'i badiy adabiyotlarda ham o'z aksini topgan, masalan, «Kechirasiz, taqdir ekan... – dedi va xi-xilab kuldi, - men taqdirning qo'lida o'yinchoqman!...» (Abdulla Qahhor, Muhabbat). «Taqdir qalami bilan yozilgan vaqti soati yetishganda» (P. Shermuhammedov, Tarixchi va ijodkor nigohi). «— Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalangan bo'lsa ham. — dedi, — avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka bo'lg'an qarshilikdaridan bu kungacha to'y qilolmay kelamiz» (A.Qodiriy, O'tkan kunlar). «Tilni assotsiativ yo'nalishda o'rganish insonning tildan foydalanish jarayonida tafakkurning ko'z ilg'amas faoliyati haqida qiziqarli bilimlar berishi shubhasiz» [6,7]. O'zbek lingvomadaniy jamoasida taqdir substantsiyasi tabiatini tilda tasvirlash uchun kurash vaziyatidan foydalaniladi, masalan inson taqdir bilan kurashadi; taqdirga tan beradi/bermaydi; inson o'zini taqdir izmiga qo'y(a)di; taqdir hukmiga bo'ysunadi/bo'ysunmaydi kabilar. Tubandagi til birliklari orqali taqdirning tipik faoliyati tajovuzkorona buzish, taqdirning qudrati zo'rlik qilish, mutloq gegemonlik tabiatiga egaligi o'z in'ikosini topgan: taqdir (uni)sindir(a)di taqdir; ayro qil(a)di; buzadi; tortib oladi; men qilaman o'ttiz, taqdir qiladi to'qqiz kabilar. Taqdir mifologik qahramon, vaqt, hayvon obrazlari bilan assotsiyatsiyalashadi, masalan mol molga yetguncha, Azroil jonga yetar; ozmayman degan yigitni qorong'u tun ozdirar;bo'rkni tashlab bo'ridan qutilib bo'lmas. O'zbek etnosida taqdir tadbir (tafakkur, donishmandlik)

zidligi munosabati kuzatiladi, masalan sening taqdiring, do'ppingni tagida joylashgan; tuya quvsa, o'rga qoch, ilon quvsa-shudgorga; bir mix – bir nag'alni, bir nag'al, bir otni tutar; yelli kun yo'rt, yog'inli kun yot kabi ba'zi maqollarda taqdir leksemasi bevosita ishtirok etmasada, kvazisemada anglashilib turadi. Taqdir bir qancha atribituvlarga ega: sho'r peshona, qora taqdir, manglayi qattiq, peshonasi yorug', peshonasi yaltiragan va hakoza. «Taqdir»ni ifodalovchi maqollardagi kognitiv belgilar asosida quyidagicha tasniflandi: 1) inson tadbiri okultis kuch oldida ojizligini anglatuvchi turg'un birikmalar: men qilaman o'ttiz, taqdir qiladi to'qqiz; odam tuzar, taqdir buzar; olaman degan qulidan, tortib oladi qo'lidan; 2) inson tadbiri taqdirni o'zgartira olishini ifodalovchi maqollar: tadbirga taqdir hayron; taqdirning ishini tadbir buzolmas; 3) tadbir va taqdirning tengligini ifodalovchi maqollar: taqdirning ishini tadbir buzolmas, tadbirning ishini taqdir buzolmas; 4) tadbir ijobiy bahoga ega taqdirni yarata olishini ifodalovchi maqollar: taqdirli ayol – tadbirli ayol; 5) taqdirni oldindan bilib bo'lmaslikni ifodalovchi turg'un birikmalar: beshikdagi bolaning bek bo'lishin kim bilar; buyurgan olar, yugurgan qolar; 6) taqdir dan qutilib bo'lmaslikni ifodalovchi maqollar: tuya qochib yukdan qutilmas; bo'rkni tashlab bo'ridan qutilib bo'lmas; tulki qancha qochmasin, borar joyi – mo'ynado'zning do'koni; 7) o'lim barcha insonlar taqdiri ekanligini anglatuvchi maqollar: har kimga bir uy, bir go'r; 8) taqdir bilan o'zaro munosabatda hiylaning ijobiy baholanishini ifodalovchi maqollar: hiyla bilan arslon tutilar, kuch bilan sichqon tutilmas; qilich eng so'nggi hiyladir; hiyla ham o'z o'rnida botirlik; 9) o'limdan boshqa har qanday ko'rgulikning yechimi, davosi borligini anglatuvchi maqollar: har og'riqning davosi bor, har emgakning chorasi bor; qichiganni qashigan yengar; qurtning davosi – qaynoq suv; sichqonni tutishga qopqon zarur, dushmani otishga – sopqon; har yerning tulkisini o'z tozisi bilan ovla; qistov bo'lsa, ot yaraydi, uzoq bo'lsa – xat; qishda po'stin kiyma, qazi ye; 10) ko'rgulikka avvaldan hozirlik ko'rish maqbulligini ifodalovchi maqollar: daryoga ot solmasdan kechuvini top; jumadan umiding bo'lsa, payshanbadan harakat qil; zamona kelmay qirindan, g'amingni ye burundan; kun qizarib botsa, qizingni uzat, tong qizarib o'tsa, tomingni tuzat; kun g'amini sahar ye, yil g'amini bahor ye; minora solgan minora bo'yi chuqur qazir; 11) kutilmagan ko'rgulikning voqe bo'lishini anglatuvchi maqollar: asragan ko'zga cho'p kirar; asragan qo'l sinar; suv ko'zasi suvda sinar; 12) taqdir bilan munosabatda tavakkalchilikni maqbul sanalishini ifodalovchi maqollar: betda yurgan bo'riman, nasibamdan ko'raman; toshga soch toleingdan ko'r; boshga tushganini ko'z ko'rar; 13) ko'rguliklar nisbiylikni anglatuvchi maqollar: o'tmas umr bo'lmas, sinmas – temir; sinmasni kulol yasamas, o'lmasni xudo yaratmas; sinalmagan sop qolmas, yirtilmagan qop qolmas; qush qo'nmaydigan daraxt bo'lmas; 14) Lavhul – Mahfuzda bitilganiga ishonishni anglatuvchi maqollar: qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'lar; 15) ayollar taqdir-tadbir munosabatida imkoniyati cheklanganligini ifodalovchi maqollar: ayol degan palaxmon toshi, qaerga o'tsa shu yerga tushar. 16) taqdir substansiyasi Olloh hukmi ostidagiligini ifodalovchi maqollar: devonaning ishini xudo o'nglar; bandaning boshi – olloning toshi kabilar.

Yuqorilardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek lisoniy ongida salbiy konnotatsiyali taqdir o'lim leksemasi bilan assosastiyalashadi. O'limga nisbatan hech bir tadbir, davo yo'q. Zero, yer yuzida tirik jon borki o'lim sharbatini totguvchidir. Qismatning boshqa shakllariga nisbatan "tiz cho'kmaslik" g'oyasi ilgari suriladi. Ko'rguliklar abadiy emas. Taqdirning insonga nisbatan harakati vertikal, ya'ni "yuqori –quyi" munosabati shaklida anglanadi. Madaniyatning zamon va makon kategoriyalari nuqtai nazaridan taqdir o'tmish va kelajakni qamrab oladi, Lavhul-Mahfuz yoki 'tepada hamda inson tanasining bosh qismi 'peshanasida bitilgan, ya'ni makon topgan.

Zamonaviy ingliz tilida markaziy, yaxlitlikni ifodalovchi taqdir haqidagi tasavvur, avvalgidek, *fate*, *destiny*, *fortune* otlari saqlanib qolmoqda [12]. Zamonaviy lison manzarasida

eng aniq taqdir **fate** referenti emas bu - erksizlikdir: *Whatever limits us we call fate* (Bizni cheklaydigan hamma narsani biz taqdir deymiz) Erksizlik tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan holda, taqdir *thought, mind, soul* paradigmatic qatoriga qarama-qarshi qo'yilgan. Taqdir - odamning tetik aqli, dadil ruhi uni ich-ichidan erkin qiladi: *There is no chance, no destiny, no fate, that can hinder or control the firm resolve of a determined soul* (Qat'iyatli ruhning mustahkam irodasini boshqaruvchi bunday tasodif yo'q, bunday taqdir yoq bunday maqsad yo'q.) *men are not prisoners of fate, but only prisoners of their own minds* (odamlar taqdir asirlari emas, ular o'z aqlarining asirlaridir). *Fate, death, time* taqdir semantik maydonida yagona assotsiativ qatorni hosil qiladi - ularning barchasi o'lim tushunchasi bilan bog'liq. Taqdir o'lim bilan assotsiativ jihatdan bog'liq, ammo semantik jihatdan emas, garchi o'lim semantikasi zamonaviy "fatal" sifatida va "to meet one's fate" iborasida aks etgan.

Lisoniy mazmunda taqdir va qismatga qarama-qarshi turli faol harakatlar, fe'llarda lisoniy ifodalarni qabul qiluvchi *to act* "harakat qilmoq" *to labor, to work* "mehnat qilmoq, ishlamoq," *to pursue* "izlamoq, erishmoq," *to control* "boshqarmoq," *to struggle* "kurashmoq," *to change* "o'zgarmoq," *to escape* "qochmoq" kabilar qo'yiladi.

XULOSA. Til egalari o'z hayotlarida amal qiluvchi Qur'oni Karim va Injilda qayd qilingan "bitikda yozilgani bo'lishi" xabarlariga qaramasdan inson o'z taqdirini o'zi yaratishiga bo'lgan ishonch etnomadaniy ongda ustivorlik kasb etadi. Yuqorilardan xulosa qilinsa, taqdir tushunchasi tilning frazeologik fondi, badiiy adabiyot va folklorda o'z ifodasiga ega bo'lib, uchta ma'naviy tarkibni o'ziga biriktiradi:

- 1) taqdir insonlar ustidagi qudrati mutlaq;
- 2) taqdir xudo tomonidan insonga beriladigan narsa;
- 3) taqdir xudo tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan hukm.

O'rganilgan materiallar asosida madaniyat tuzilmasini yaxlitlikda: "Taqdirdan qochib qutilib bo'lmas" turg'un birikmasi orqali ifodalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nacisione A. Stylistic Use Of Phraseological Units in Discourse. 2011.-p.289
3. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеологиясининг шаклланиши ҳамда тараккиёти. – Самарқанд, 2011.-114 б
4. Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: Сб. науч. тр. – Воронеж, 2001. – С. 75–80
5. Карасик В.И. Концепты-регулятивы // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Отв. ред. В. В. Красных, А. И. Изотов. – Москва: МАКС Пресс, 2005. Вып. 30. – С. 97.
6. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент, 2017. 140 б
7. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: ДДА. Тошкент: 2000.- 50 б
8. Степанов, Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2001. – 43 с.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-5 жилд. -Тошкент: "ЎМЭ", 2008.
10. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-3 жилдлар. - Тошкент: "Ўқитувчи", 2000 2009
11. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати (Ш.Рахматуллаев ва бошқ). - Тошкент: "Ўқитувчи", 1978.- 407 б
12. Чупрына. О.Г. Эволюция языковой репрезентации понятия судьба в английском языке. О.Г. Чупрына // Язык в проблемном поле гуманитаристики: кол лектив. монография . – Архангельск: Поморский университет, 2010.– С. 126–156.